

MUSTAQILLIK YILLARIDA ÖZBEKISTONDA MADANIY MUASSASALAR TARIXI FAOLIYATI (SURXONDARYO MISOLIDA) 1991-2000 YILLAR

Xujageldiyev Sardor Pardayevich

TERDU Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi 2- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mustaqillik yillarida Özbekistonda madaniy muassasalar tarixi faoliyati (Surxondaryo misolida) 1991-2000 yillari tadbiq etilgan.

Аннотация: В данной статье применяется историческая деятельность учреждений культуры Узбекистана в годы независимости (на примере Сурхандарьинской области) 1991-2000 гг.

Abstract: In this article, the historical activity of cultural institutions in Uzbekistan during the years of independence (in the case of Surkhandarya) 1991-2000 is applied.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, tarixiy xotira, m a'naviy meros, teatr, kino san'ati, musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at, Yoshlar ittifoqi, m a'naviy qadriyatlar.,.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy, siyosiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtida m a'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamma faoliyat olib borilmoqda. Madaniy meros — qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, otaboboblarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar- siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq — odob me'yorlari, ilm fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi mavjud ma'naviy merosga tayanadi. biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'g-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR.

O'zbek xalqining boy ma'naviy qadriyatlarini qaytadan tiklash, ularni xalqimizga qaytarish mustaqillik davri tariximizning ajralmas qismidir. Shu ma'noda bu tarixni yoritmay turib, umuman mustaqillik davrining to'la tarixini yaratib bo'lmaydi.

Shu borada «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tashkil qilish va ularning ish samaradorligini oshirishga qaratilgan 1994-yil 23-apreldagi va keyingi Prezident farmonlari Respublikada ma'naviy va mafkuraviy ishlarni yuksaltirishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000- yilning 2-iyunidagi Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashini qo'llabquvvatlash to'g'risidagi yangi farmoni mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni izchil amalga oshirish, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va

tamoyillarini xalqimiz ongi va qalbiga singdirish borasida ulkan ishlarni amalga oshirishga qaratilgan muhim dastur bo‘lgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 28-iyulda qabul qilingan (PQ-3160) «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi qarori bilan Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi birlashtirilib, Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi qayta tashkil etildi, uning dolzarb vazifalari belgilandi. Bu esa jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbek milliy maqom san’atining noyob namunalarini keng targ‘ib qilish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish, yosh avlod qalbida milliy mumtoz san’atimizga hurmat va ehtirom tuyg‘ularini kamol toptirish, turli xalqlar o‘rtasidagi do‘slik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma’rifiy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda kengaytirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2018-yil 6-aprelda «Xalqaro maqom san’ati anjumanini o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018 yil 6–10 sentyabr kunlari Shahrisabzda 73 davlat vakillari ishtirokida birinchi Maqom san’ati xalqaro forumi bo‘lib o‘tdi. Tadbir ishtirokchilari va mehmonlarning fikriga ko‘ra, ushbu anjuman jahon madaniyatining mulkiga aylangan noyob o‘zbek milliy maqomini saqlash va rivojlantirishga katta hissa qo‘shadi. 2018-yil 24- iyulda O‘zbekiston Prezidentining «Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» qarori mamlakatimizda kino san’atini yanada rivojlantirish, sohada malakali mutaxassislar tayyorlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha muhim tadbirlarga asos bo‘lmoqda.

Bugungi kunda O‘zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san’atining noyob namunalarini asrabavaylash va rivojlantirish, uni keng targ‘ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san’at turiga hurmat va e’tibor tuyg‘ularini kuchaytirish, turli xalqlar

o‘rtasidagi do‘slik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy -ma’naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-noyabrdra «Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida»gi Qarori qabul qilindi. Qaror asosida O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi hamda Surxondaryo viloyati hokimligining Termiz shahrida har ikki yilda bir marta xalqaro baxshichilik san’ati festivalini tashkil etish hamda ushbu festivalni birinchi marta 2019-yil 5–10 aprel kunlari o‘tkazish haqidagi taklifi ma’qullandi.

Shuningdek, o‘zbek milliy maqom san’ati markazi va muzeyi tashkil etildi, ushbu san’at yo‘nalishini rivojlantirish tizimi yaratildi.

Oxirgi yillarda Surxondaryo viloyati madaniyat va san’at sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi.


Bu ezgu ishlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning sa’y-harakati va rolini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Fikrimizning dalili sifatida Qashqadaryo zaminida buyuk alloma, moturidiya ta’limotining yirik vakili, islomiy e’tiqod pokligi masalasida 15 ga yaqin kitob muallifi Abu Muin Nasafiy, Sherobod tumanida buyuk hadisshunos alloma Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Buxoroda Bahouddin Naqshband hazratlari, Toshkentda Imom Termiziy nomidagi masjid va Suzuk ota maqbaralari kabi ko‘plab ziyoratgohlarni obod qilish borasidagi ezgu ishlarni qayd etish mumkin. Istiqlol Surxondaryo viloyatini yashartirib, yashnatib yubordi. Tubdan qayta ta’mirlanib, obodonlashtirilgan Hakim at-Termiziy ziyoratgohidan sayyoohlar qadami uzilmaydi. Bobur nomidagi bog‘ haqiqiy madaniyat va istirohat maskaniga aylangan. 2009-2015 yillarda viloyatda namunaviy loyihalar asosida 4 ming 700 dan ortiq uy-joy tiklangan bo‘lsa, joriy yilda yana 1 ming 48 uy-joy qurilmoqda.

Al-Hakim At-Termiziy ziyoratgohi: bugun va yaqin o‘tmishda.



Termiz davlat universitetining yangi, zamonaviy binosi, «Delfin» suzish havzasi, 10 ming tomoshabinga mo‘ljallangan «Surxon» sport majmuasi, ko‘rkam «Yoshlar markazi» bilan «Baxt uyi», «Amfiteatr» bilan kamalakdek serjilo musiqali favvora... Hamma-hammasini sanab sanog‘iga yetolmaysiz. Termiz shahrining 2200 yilligi munosabati bilan tashkil qilingan Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan Arxeologiya muzeyi alohida mavzu.

Termiz davlat universiteti: bugun va kecha.



Bugungi Surxon sport majmuasi va uning ilgarigi o‘rni.

Markaziy ko‘chalarni tutashtiruvchi keng va ravon avtomobil yo‘llarining ta’rifiga so‘z ojiz. Yo‘llarning ikki tomonida zamonaviy me’morchilik va shaharsozlik talablari darajasida ko‘p qavatli turar-joy, jamoat va servis xizmatlari ko‘rsatadigan binolar barpo qilingan.


Termiz shahridagi Alisher Navoiy ko‘chasingning hozirgi ko‘rki va o‘tmishdagi qiyofasi.



Asr qurilishi nomini olgan «Toshguzar — Boysun — Qumqo‘rg‘on» temir yo‘li esa haqiqiy ma’noda istiqlolning bebahos tuhfasidir. Mazkur inshoot foydalanishga topshirilishi bilan

o'ndan ortiq yirik konlar bag'ridagi boyliklarni qazib olish va tashish imkonini paydo bo'ldi, minglab yangi ish o'rnlari yaratildi.

Toshguzar — Boysun — Qumqo'rg'on temir yo'li va u o'tgan hududlar.



Mustaqillik yillarida Shveytsariya, Malayziya, Xitoy, Rossiya, AQSh va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan ko'plab qo'shma korxonalar tashkil qilindi.

Ayni kunlarda viloyatda 2 mingga yaqin yirik sanoat va ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Mahalliy va xorijiy kompaniyalar ishtirokida tashkil etilgan «Surxonpaxtasanoat», «Jarqo'rg'on neftni qayta ishlash», «Sho'rchi don mahsulotlari», «Shindong-Spining-Termiz», «Surxon-Termiz-Silk» va boshqa o'nlab korxonalarda tayyorlanayotgan sifatli mahsulotlar xorijda ham o'z mijozlarini topmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olim ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebahosidagi, butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1. - Toshkent: O'zbekiston. 2017.
2. Usmonov M. Ma'naviy va madaniy merosni asrashning huquqiy asoslari. O'zDSMI xabarlari. 2018/1(5) –B.4
3. 7. O'zbekiston xalqining dini, madaniyati va urf-odatlari: tarix va hozirgi holat. - Toshkent: TIU, 2011.